

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022 yil yanvar-oktabr oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **439,9** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,4** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 83,0 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,7 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,8 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida ishlab chiqarish 13,3 % ga, o'sishi bo'ldi.

Shu bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 1,2 %ga oshgan bo'lsa, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarida 2,6 %ga kamaydi.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 135,7 %), shuningdek, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish korxonalarida (143,8 %) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

Shu bilan birga ishlab chiqarish sanoatida, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 74,3 %), hamda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish korxonalarida (94,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarida (98,0 %) ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida metall rudalarini qazib olish korxonalaridagi (2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 106,6 %) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga xom neft va tabiiy gaz qazib olish korxonalarida (2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 99,2 %) ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati 123,7 %ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi ulushi 35,4 %ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 35,5 %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa 64,5 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 121,4 %ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa 125,0 %ni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **9,4 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari joriy yilning oktabrida o'tgan yilning dekabriga nisbatan narxlarning o'sish sur'ati bo'yicha yetakchilikni saqlab qoldi (11,5 %). Ular narxlarining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-oktabrida 1,1 % ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ushbu davrda 8,9 %ga qimmatlashdi, narxlarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,9 % ni tashkil etdi.

Pullik xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-oktabrida 6,4 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati esa 0,6 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-oktabridagi yig'ma INI o'sish sur'atiga eng yuqori ta'sir oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, ular narxlarining oshishi yig'ma INI 4,86 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) yuqorilashini ta'minladi. Nooziq-ovqat mahsulotlar hisobiga yig'ma INI 3,10 f.d. va xizmatlar hisobiga 1,46 f.d. yuqoriladi.

Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 51,6 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 32,9 % i va xizmatlar hissasiga 15,5 % i to'g'ri keldi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'zgarishlarining 2022-yilning yanvar-oktabridagi yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, ushbu davrda ularning narxlari 11,3 % ga qimmatlashdi va yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atini 4,50 f.d. yuqorilashini ta'minladi. Salmoq ko'rsatkichlarida mazkur mahsulotlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 47,7 %idan ortig'i to'g'ri keldi. Ushbu bo'lim tovarlari orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining oshishi yetakchilik qildi. Shunday qilib, mazkur guruhga kiruvchi mahsulotlar narxlari joriy yil boshidan 27,9 %ga oshdi. Bundan tashqari, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (25,0 %) va yog'moy mahsulotlari (12,7 %) narxlari ham sezilarli darajada oshdi. Narxlarning pasayishi meva-sabzavot mahsulotlarida (3,3-8,3 % atrofida) qayd etildi.

Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (18,4 %), sog'liqni saqlash (13,5 %), dam olish, sport va madaniyat (12,9 %) bo'limlari 2021-yilning dekabriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan joy oldi. Ushbu bo'limlarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga jami ta'siri 1,53 f.d. ni tashkil etdi.

3. Qurilish ishlari

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida **104557,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **105,7 %**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 28247,7 mlrd. so'm yoki 27,0 % yirik korxonalar va

tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 57614,9 mlrd. soʻm yoki 55,1 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 18694,7 mlrd.soʻm yoki 17,9 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **243 707,7** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **11,7 %** ga oʻsdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar- oktabr oyiga nisbatan 33,1 % ga oʻsdi, bu esa umumiy savdo hajmining 21,5 % ulushiga toʻgʻri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 6,3 % ga koʻpaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 70,2 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 8,3 % ulush bilan 20 144,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **40 098,7** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **7 280,1** mln. AQSh dollariga yoki **22,2 %** ga koʻpaydi. Eksport hajmi **15 483,1** mln. AQSh dollariga (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **23,8 %** ga oʻsish) va import **24 615,6** mln. AQSh dollariga oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **21,2 %** ga oʻsdi).

Eksport tarkibida ham oʻsish kuzatildi, shu jumladan: hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari) yogʻlar va mumlar oʻtgan yilning mos davriga nisbatan - 17,0 b. (19,3 mln. dollargacha)ga, ichimliklar va tamaki 3,2 b. (57,9 mln. doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 36,2 % (231,8 mln doll), Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar 35,9% (282,1 mln.doll)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 18,6 % (200,0 mln. doll.)ga koʻpaydi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (shu jumladan ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarga) - 5,4 % (1 036,3 mln. doll.), sanoat tovarlari 27,2 % (1 015,4 mln. doll.), kimyo mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar)- 17,0 % (494,6 mln. doll.) toʻgʻri keladi.

6. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **289,7** trln. soʻmni tashkil etdi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **16,5 %** ga oʻsdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining oʻsishida moliyaviy xizmatlarning 30,3 % ga (koʻrsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining oʻsishidagi taʼsiri 6,4 punkt), transport xizmatlari 14,9 %ga (oʻsishdagi taʼsiri 3,5 punkt), savdo xizmatlari 8,5 % ga (oʻsishdagi taʼsiri 2,2 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,8 %ga (oʻsishdagi taʼsiri 1,6 punkt), taʼlim

sohasidagi xizmatlar 14,8 % (o'sishdagi ta'siri 0,6 punkt), boshqa xizmatlar 15,8 % (o'sishdagi ta'siri 0,6 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 14,0 % (o'sishdagi ta'siri 0,4 punkt), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 11,6 %. Ularning ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 0,3 punktni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (71,9 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 %), moliyaviy xizmatlar (65,9 trln.so'm, 130,3 %) va transport xizmatlari (65,7 trln.so'm, 114,9 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-noyabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **581,0** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 512,6 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 7,6 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 8,2 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Xorazm (14,5 foiz), Samarqand (13,3 foiz), Qashqadaryo (10,1 foiz), Surxondaryo (8,2 foiz), Farg'ona (8,2 foiz), Jizzax (8,1 foiz), Navoiy (7,6 foiz), Andijon (4,8 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,0 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (12,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (10,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (10,1 foiz), tashish va saqlash (7,3 foiz), axborot va aloqa (6,8 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5,8 foiz), sanoat (3,3 foiz) hamda qurilish (2,3 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022 yil yanvar-oktabr oyida respublikada 79,8 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 76,9 mingtani tashkil etdi.

2022 yil 1 noyabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 153 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 14,1 % ni yoki 1 870 tani tashkil etdi. Ulardan 6 306 tasi qo'shma korxonalarni va 8 847 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.